

**MUSTABIDLİK DAVRI JURNALISTIKASIDA FIKRIY BO‘LINISH HAMDA QARAMA-QARSHILIKLAR**

**Musurmonov Ilhom**

*TDSHU 1-kurs magistranti, Toshkent, O‘zbekiston*

*Tel: +998974623303; e-mail: musulmonovilhom681@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada mustabidlik davri Turkiston matbuoti holati, jadidlar orasidagi fikriy hamda ixtilofiy qarama-qarshiliklar hamda bo'linishlar tahlil qilinadi. Ulardagi siyosiy, ijtimoiy, diniy va ideologik qarashlar o'rganiladi hamda ular yuzasidan fikr yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *matbuot, jadid, Turkiston, mutaassib, feodal, modern, islom, sho'roi ulamo, sho'roi islom, mustabdilik.*

**Аннотация:** *В статье анализируется состояние туркестанской прессы в годы диктатуры, идейно-идеологические противоречия и разногласия среди джадидов. Изучаются и обсуждаются их политические, социальные, религиозные и идеологические взгляды.*

**Ключевые слова:** *пресса, новый, Туркестан, фанатичный, феодальный, современный, ислам, совет ученых, совет ислама, абсолютизм.*

**Abstract:** *This article analyzes the state of the Turkestan press during the dictatorship, the ideological and divisive contradictions and divisions among the Jadids. Their political, social, religious and ideological views are studied and discussed.*

**Keywords:** *press, Jadid, Turkestan, fanatical, feudal, modern, Islam, council of scholars, council of Islam, dictatorship.*

Mustaqillik yillarida ko'p sohalar qatorida mustabidlik davri tarixi ham uning turli soha va tarmoqlarini qamrab olgan holda chuqur hamda atroflicha o'rganilib bu yo'ldagi tarixiy haqiqatlar tiklanib bormoqda.

Tarixan rivojlanib, shakllanib turli davr va tuzumlarda turli qolip, uslub hamda g'oyalar bilan shakllangan mustabidlik davri jurnalistikasi ham eng qizg'in fikr-g'oyalar, mafkura va turli ideologiyalar o'rtasidagi bahsga guvoh bo'lgan, shakllangan va taraqqiy etgan deyish mumkin. Jurnalistika hamda publitsistika shakllanishida Turkiston sharoitida eng ko'p ta'sir o'tkazgan nashrlar bu Qrim-tatar ziyolilari tomonidan chop etilib bosiladigan "Vaqt" hamda "Tarjumon" gazetalari edi. [1] Garchi umumiy Turkiston matbuotini ma'lum jadidchilik oqimiga burib yuborgan esa-da, bu gazetalarda Turkistondagi umumiy fikriy bo'linishga barham bera olmagan. Masalan, jadidlarning aksariyat yosh qatlami hamda asosini tashkil etgan katta yoshlilar o'rtasida Yevropacha standartlar o'rnatish bo'lasida fikriy bo'linish mavjud bo'lib kelgan. Bu bo'linish

keyinchalik Turkistonda umumiy bo'lgan Turkiston birligining "Sho'roi islom" hamda "Shuroi ulamo" kabi ikki katta guruhga bo'linib ketib umumiy kuchlarning zaiflashishiga olib keldi. [2] Bu esa o'lkani idora qilgan ma'muriyat uchun ayni mudao edi.

Jadidlarning fikriy qarama-qarshiligi asosan quyidagi sohalarida namoyon bo'lgan. Birinchidan an'anaviy madrasalarga qarshilik va zamonaviy metodik o'quv-uslubiy maktab ta'limini rivojlantirish. Bu borada jadidlar eski usul (usul-i qadim) ta'limni, ya'ni asosan diniy fanlarni yod olishga asoslangan tizimni tanqid qilib, unda dunyoviy fanlar (matematika, tabiiy fanlar, tillar) va yangi pedagogik usullarni joriy etishga intilishdi.

Diniy konservatorlar qadriyatlarga ega ulamolar esa bu o'zgarishlarni diniy an'analarga xiyonat deb hisoblashdi. Buni Buxoro amirligining islohotlar o'tkazish to'g'risidagi farmoni chiqqanidan keyingi 1917-yilgi ulamolar namoyishlari fonidan ham ko'rishimiz mumkin. [3]

Ikkinchidan, Turkiston ijtimoiy hayoti masalasidagi o'zaro fikriy bo'linishda, ayniqsa, namoyon bo'lgan. Ayollar huquqlarida (masalan, ta'lim olishi va jamiyatda faol ishtiroki) kabi g'oyalar an'anaviy jamiyatning patriarxal tuzilishiga zid esa-da, zamonaviy davr talabi shu ekanligini yaxshi anglagan jadidlar bunga jiddiy e'tibor qaratish lozim deb bilgan. Ayni shu jarayonda ham feodal konservator dindor qatlam ijtimoiy tenglik va modernizatsiya g'oyalarini o'z hokimiyati uchun xavf deb bildi.

Uchinchidan, jadidlar islomni modern dunyo bilan uyg'unlashtirishga harakat qildi, ilm-fan va din o'rtasida muvozanat izladi. Bu esa mutaassib ruhoniylar tomonidan bid'at sifatida rad etildi. To'rtinchidan, an'anaviy adabiyot va fors tilining ustunligiga qarshi kurashda namoyon bo'ldi. Jadidlar mahalliy turkiy tillarni (o'zbek, turk) rivojlantirish, yangi adabiyot va matbuotni kengaytirishga intilishdi. Biroq bu yo'ldagi lotin alifbosiga o'tish kabi takliflar konservatorlar tomonidan milliy madaniy merosga tahdid sifatida qabul qilindi. Beshinchidan, siyosiy qarashlarda Rossiya mustamlakachiligiga munosabat ham ikki xil standart asosida edi. Ba'zi jadidlar modernizatsiya orqali Rossiya hukmronligiga qarshilik ko'rsatishga, boshqalari esa hamkorlik qilishga intilishdi. Bu ichki kelishmovchiliklarni keltirib chiqarib birlik hamda hamjihatlikka kuchli zarba bo'ldi. Shuningdek, milliy mustaqillik g'oyalari va turli xalqlar (turklar, slavyanlar) hamkorligi haqidagi diskussiyalar ham qarama-qarshiliklarni kuchaytirdi. Mutaassib ulamoning g'ayridinni kofir deb uni odam o'rnida ko'rmasligi XX asr Turkiston matbuotida ham o'z so'zini aytmasdan qolmadi.

Oltinchidan, iqtisodiy tafakkur an'anaviy dehqonchilik va hunarmandchilikga asoslangan iqtisodiyotdan sanoat va savdo-sotiqni rivojlantirishga o'tish istagida ham katta yer egalari va boylarning manfaatlariga zid edi. Ular arzon ishchi kuchi va feodal mulklaridan ayrilib qolishni istamadilar. Bu jarayonda kolonial G'arblashuv ob-havosi yetishmadi deyish mumkin.

Xulosa qiladigan bo'ksak, jadidlar o'zlarining progressiv g'oyalari tufayli ham an'anaviy jamiyat vakillari, ham mustamlakachi hokimiyat tomonidan tanqid qilindi.

Biroq ularning fikrlari keyinchalik Markaziy Osiyoda milliy uyg'onish, zamonaviy davlatchilik va madaniy yangilanishlar uchun asos bo'ldi deb bemalol ayta olamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ernazarov T. Turkistonda vaqtli matbuot(1870-1924). — Toshkent: O'zbekiston SSR davlat nashriyoti, 1959.
2. Ziyo Said. O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870-1927). — Toshkent: O'zbekiston SSR davlat nashriyoti, 1927.
3. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. —Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2002.

